



**15-16 APREL  
2022**

**TOSHKENT  
O‘ZBEKISTON**

**“GEOGRAFIK TADQIQOTLAR: INNOVATSION G‘OYALAR  
VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI”**

**XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA**



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM  
VAZIRLIGI  
MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI  
G.O. MAVLONOV NOMIDAGI SEYSMOLOGIYA INSTITUTI**

**O‘ZBEKISTON GEOGRAFIYA JAMIYATI**

**“TADQIQOT.UZ”  
XALQARO ILMIIY JURNALLAR PORTALI**

**GEOGRAFIK TADQIQOTLAR:  
INNOVATSION G‘OYALAR VA RIVOJLANISH  
ISTIQBOLLARI**

**II  
XALQARO ILMIIY-AMALIIY KONFERENSIYA  
MATERIALLARI**

**TO‘PLAMI**

**Toshkent - 2023**

**Geografik tadqiqotlar: innovatsion g'oyalar va rivojlanish istiqbollari:**  
II Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to'plam (15–16-aprel, 2022-yil, Toshkent). –Toshkent.: TADQIQOT.UZ, 2023. – 847 bet.



<http://doi.org/10.5281/zenodo.4751426>

To'plamda keltirilgan ilmiy tadqiqot ishlari natijalaridan tabiiy geografiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, iqtisodiy va ijtimoiy geografiya, xorijiy mamlakatlar iqtisodiyoti va mamlakatshunoslik, tashqi iqtisodiy faoliyat, turizm, gidrologiya, gidrometeorologiya, geologiya, geodeziya, kartografiya hamda geoinformatika sohalaridagi mutaxassislar, ilmiy xodimlar, mustaqil izlanuvchilar, doktorantlar, magistratura va bakalavriat talabalari, umumiy o'rta ta'lim maktablari, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari o'qituvchilari hamda geografiya faniga qiziquvchilar foydalanishlari mumkin.

**Tahrir kengashi:**

g.f.d., professor Hikmatov F.H.  
g.f.d., katta ilmiy xodim Rafiqov V.A.  
g.f.n., dotsent Sharipov Sh.M.

**Kengash a'zolari:**

g.f.n., dotsent Tashtayeva S.K.  
g.f.n., dotsent Shomurodova N.T.  
PhD, dotsent Shomurodova Sh.G'.  
PhD, dotsent Prenov Sh.M.  
PhD, dotsent Raxmonov D.N.  
PhD, dotsent Raxmonov K.R.  
PhD, dotsent Umirzoqov G'.O'.

**Mas'ul muharrir:**

Ibragimov Sh.U.

©Mualliflar jamoasi

©tadqiqot.uz

## O‘ZBEKISTON VA QOZOG‘ISTON CHEGARAOLDI (TRANSCHEGARAVIY) HUDUDLARIDA TURIZMNI RIVOJLANTIRISH

**Ablyamitov Sherzod Qurbon o‘g‘li**

magistrant

Mirzo Uug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti

**Annotatsiya:** Turizm sohasidagi hozirgi tendensiyalar va o‘zgarishlarni ham mamlakat darajasida, ham ma’lum bir mintaqada darajasida kuzatish mumkin. Turizm bugungi kunda xizmat ko‘rsatish sohalari tarmog‘idagi jadal sur‘atlar bilan rivojlanib borayotgan soha hisoblanadi. Xususan, mamlakatimizda ham so‘nggi yillarda turizmni rivojlantirishga juda katta e‘tibor qaratilmoqda. Shuning uchun ham turizmni rivojlantirish, turistik obyektlardan samarali foydalanish, yangi turistik koridorlarni ishlab chiqish, mamlakatimizga turistik oqimlarni oshirish kabi masalalar muhim ahamiyat kasb etadi.

**Kalit so‘zlar:** turizm, transchegaraviy turizm, turistik koridor, turistik infratuzilma, turistik faollik, migratsiya.

## DEVELOPMENT OF TOURISM IN CROSS-BORDER REGIONS OF UZBEKISTAN AND KAZAKHSTAN

**Annotation:** Current trends and changes in the field of tourism can be observed both at the national level and at the level of a particular region. Today, tourism is one of the fastest growing sectors in the service sector. In particular, in recent years in our country a lot of attention is paid to the development of tourism. Therefore, issues such as tourism development, efficient use of tourist facilities, development of new tourist corridors, increasing tourist flows to our country are important.

**Key words:** tourism, cross-border tourism, tourist corridor, tourist infrastructure, tourist activity, migration.

Turizm uzoq rivojlanish tarixiga ega. Shu munosabat bilan turizmning ta’rifi turli mutaxassislar tomonidan farq qilishi mumkin. Turizm murakkab ijtimoiy-iqtisodiy hodisadir, shuning uchun ham bu sohani miqdoriy jihatdan baholash juda qiyin. 1954-yilda BMT tomonidan qabul qilingan ta’rifga ko‘ra: “Turizm – bu doimiy yashash joyidan tashqarida harakatlanish bilan bog‘liq bo‘lgan, inson salomatligini mustahkamlashga, jismoniy rivojlanishiga ta’sir qiluvchi faol dam olishdir”.



Bugungi kunda dunyo turizm sohasining rivojlanish tendensiyalari rivojlangan mamlakatlardan rivojlanayotgan mamlakatlarga tomon o'zgarimoqda. Shu o'rinda, turistik bozorning deyarli yarmini qamrab olgan Osiyo-Tinch okean, Yaqin va O'rta Sharq hamda G'arbiy Afrika mintaqalaridagi mamlakatlar jahon turizm sohasida yetakchilik qilmoqda.

Ayni paytda, jahon turizm tarmog'ida xalqaro turizmdan tushgan daromad avtomobil, neft-gaz ishlab chiqarish sanoatidan keyin 3-o'rinni egallaydi. Mamlakatimizda ham xizmatlar sohasini, ayniqsa turizm xizmatlarini rivojlantirishga katta e'tibor berilmoqda.

Mamlakatimizda xizmatlar sohasi jadal sur'atlar bilan rivojlanib borayotgan ekan, turizm xizmatlarini ham yanada rivojlantirish, turizmning yangi turlarini shakllantirish, ayniqsa mamlakatimizning turistik salohiyatidan kelib chiqqan holda turizmni rivojlantirish dolzarb masalalardan biridir. O'zbekistonda turizmning rivojlanishi, nafaqat ma'naviy, ilm-fan, madaniyat, ma'rifat, tabiatni muhofaza qilish, turistlarni mamlakatimizga jalb etish, noyob o'simliklar va hayvonot dunyosini saqlash va ko'paytirish muammolarini hal qilishga, balki iqtisodiy masalalarni – mahalliy aholining turmush darajasini yaxshilash, ularni yangi ish joylari bilan ta'minlashga katta hissa qo'shadi.

2021-yilning yanvar-sentabr oylarida O'zbekiston Respublikasiga turistik maqsadlarda kelgan chet el fuqarolari soni 1135,6 ming kishini tashkil etdi. Jumladan, MDH davlatlaridan tashrif buyurgan chet el fuqarolari 1013,7 ming kishini tashkil etdi, boshqa davlatlardan 121,9 ming kishi tashrif buyurgan<sup>1</sup>.

2021-yilning yanvar-dekabr oylarida O'zbekistonga kelgan chet el fuqarolari safar maqsadini o'qish uchun deb belgilaganlar soni 6,4 ming kishiga (jami kirib kelganlarning 0,4 % i) teng, tijorat maqsadida kelganlar – 13,7 ming kishi (0,7 %), davolanish uchun – 32,4 ming kishi (1,7 %), xizmat safari uchun – 60,7 ming kishi (3,2 %), bo'sh vaqt va dam olish uchun – 155,1 ming kishi (8,3 %). Eng ko'p sayohatlarning maqsadlariga esa qarindoshlarni yo'qlash deb belgilangan – 1613,1 ming kishi (85,7 %)<sup>2</sup>.

Bugungi kunda transchegaraviy turizm ham yuqori sur'atlar bilan rivojlanib bormoqda. Mazkur tezis ham boshqalaridan farqli o'laroq, chegara hududlarda turizm va unga bog'liq bo'lgan infratuzilmalarni rivojlantirish va mazkur hududda yashovchi aholini ish bilan ta'minlash, mehnat va turmush sharoitlarini yaxshilash, shu bilan birga xorijiy va mahalliy turistlarni e'tiborini jalb qilishga bag'ishlangan.

Transchegaraviy turizm – bu ikki yoki undan ortiq davlat hududida boshqa davlatdan dam olish maqsadidagi turistik faoliyat turini amalga oshiruvchi tarmoq

---

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari

<sup>2</sup> O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari

bo'lib, chegaradan o'tish ajralmas qismi bo'lib, undan voz kechib bo'lmaydi. Turizm sohasidagi hozirgi tendensiyalar va o'zgarishlarni ham mamlakat darajasida, ham ma'lum bir mintaqa darajasida kuzatish mumkin.

Chegara hududlari turistlar oqimini jalb qilishga va ularni e'tiborini qaratishga, o'zgarishlarga tezroq munosabatda bo'ladi va buning natijasida turistik faollikning o'sishi yoki pasayishi kuzatiladi.

So'nggi yillarda mamlakatimizning qo'shni Qozog'iston Respublikasi bilan yuqori darajada rivojlanib borayotgan tashqi iqtisodiy aloqalari turizmga ham o'z ta'sirini ko'rsatmoqda.

Agar 2016-2019-yillar oralig'ida mamlakatimizga tashrif buyurgan chet el fuqarolari sonining mamlakatlar bo'yicha taqsimotini ko'rsadigan bo'lsak, Qozog'istondan kelganlar soni quyidagi 1-jadval ma'lumotlaridan ham ko'rishimiz mumkin.

**1-jadval<sup>1</sup>**

Yillar	Jami	Shu jumladan safar maqsadlari bo'yicha					
		Xizmat yuzasidan	O'qish	Sayyohlik	Qarindoshlarni yo'qlash	Davolanish	Tijorat
2016	1384220	30466	760	41862	1285061	23987	2084
2017	1752238	47156	708	23439	1654355	24679	1901
2018	2293077	4054	237	14986	2231910	41843	47
2019	2261094	4569	250	29178	2199824	27252	21

Yuqoridagi jadvaldan ham ko'rish mumkinki, qo'shni davlatlar orasida aholi qatnovi yuqori ko'rsatkichlarga ega. Qozog'istondan mamlakatimizga kirib kelayotgan aholi soni yildan – yilga oshib borayotganini ko'rish mumkin.

2020-yil yanvar-dekabr oylari holatiga ko'ra O'zbekiston Respublikasiga kelgan chet el fuqarolarining 28,2 % ini (424,1 ming kishi) Qozog'istondan kelganlar tashkil etadi.

Nafaqat Qozog'iston Respublikasidan O'zbekistonga, balki mamlakatimizdan ham qo'shni Qozog'istonga aholining turli maqsadlarda chiqishi ham yuqori ko'rsatkichlarga ega. 2020-yil yanvar-dekabr holatiga ko'ra, chet elga ketgan

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari

O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarining 26 % i (520,3 ming kishi) Qozog‘iston Respublikasi hissasiga to‘g‘ri keladi.

Demak, bu ikki qo‘shni davlat orasida migratsion oqim mana shunday yuqori darajada ekan, har ikkala mamlakat uchun ham transchegaraviy hududlarda turizmni, infratuzilmalarni yanada rivojlantirish muhim masalalardan biri hisoblanadi.

Bilamizki, O‘zbekiston Respublikasining qo‘shni davlatlar bilan eng uzun chegarasi ham aynan Qozog‘iston Respublikasiga to‘g‘ri keladi. Mana shunday ulkan chegara oldi hududlarida turizmni rivojlantirish orqali har ikkala mamlakatning turizmini rivojlantirish, yangi turistik koridorlarni yaratish, chegara oldi hududlarida infratuzilmani yaxshilash, yangi ish o‘rinlarini yaratish, aholi bandligini oshirish, aholini turmush darajasini yanada yaxshilash kabi yutuqlarga erishish mumkin. Natijada har ikkala mamlakat iqtisodiyotida turizm sohasining ahamiyati ortib boradi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Pardayev A, Norchayev A. Xalqaro turizm. Darslik. - T.: TDIU, 2010, - 320 b.
2. Mirzayev M.A, Alieva M.T. Turizm asoslari. O‘quv qo‘llanma. O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi – T.: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2011, - 288 b.

Internet saytlari:

[www.stat.uz](http://www.stat.uz)